№ 8
(24980)
2025-yil
21-fevral,
juma

Gazeta 1914-yil 3-apreldan "Sadoi Farg`ona" nomi bilan chiqa boshlagan

# Farg'ona haqiqati

Ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy gazeta http://farhaqiqat.uz/ t.me/farhaqiqati

# ПРЕЗИДЕНТ ЁШЛАР БИЛАН САМИМИЙ МУЛОҚОТ ҚИЛДИ

**Президент Шавкат Мирзиёев 14 февраль куни ёшлар билан мулоқот қилди. Видеоселектор шаклида ўтган учрашувда ёшлар учун имкониятларни янада кенгайтириш чора-тадбирлари муҳокама этилди.**



Давлатимиз раҳбари сўзининг бошида бу учрашувдан мамнун эканини таъкидлаб, ёшларни халқимизнинг олтин фонди, деб атади.

Ўзбекистон аҳолисининг 60 фоизини ёшлар ташкил этади. Ҳар йили меҳнат бозорига 600 мингдан ортиқ йигит-қизлар кириб келмоқда. 2030 йилга бориб, бу кўрсаткич 1 миллион нафарга етади.

Ёшларнинг бандлигини таъминлаш, интилишларига шароит яратиш давлатимизнинг устувор сиёсатига айланган. Ўтган 8 йилда ёш тадбиркорлар сони 3 карра кўпайиб, улар бугун бизнес вакилларининг салкам 40 фоизини ташкил этмоқда.

Ишсиз ёшлар 2 карра камайди. Ишсизликдан холи маҳаллалар сони 1 минг 889 тага етди. "Ёшлар дафтари" орқали ўтган йили 180 минг нафар ёшларга 345 миллиард сўмлик ёрдам кўрсатилди.

Илгари олий таълимда битта ўрин учун камида 10 нафар бола кураш олиб борар эди. Қисқа даврда олийгоҳлар сони 3 баробар оширилгани натижасида энди 42 фоиз ёшлар қамраб олинмоқда. Хотин-қизларга шартнома тўлови давлат томонидан қоплаб берилаётгани ҳисобига, уларнинг сони 11 карра кўпайди.

Ўз соҳаларида муваффақиятга эришаётган ўғил-қизлар сафи тобора кенгаймоқда. Биргина мисол – ҳозирги вақтда дунёдаги нуфузли университетларда 1 минг 500 дан зиёд талабаларимиз таҳсил олмоқда.

Аввалги 25 йил ичида давлат ҳисобидан 800 нафар йигит-қиз хорижга ўқишга кетган бўлса, биргина "Эл-юрт умиди" жамғармаси орқали сўнгги 7 йилда 2 минг 300 нафар ватандошимиз шундай имкониятга эга бўлди.

Илмий даражали ёш олимларимиз сони ҳам 2 карра кўпайиб, 4 минг нафардан ошди. Мутолаа маданиятини шакллантириш умуммиллий ҳаракатга айланди. Анъанавий тарзда ўтказилаётган "Ёш китобхон" танлови иштирокчилари сони 3 миллионга етди.

Айниқса, фарзандларимиз орасида чет тилларни ўрганишга қизиқиш кескин кучайди. Сўнгги 3 йилда тил ўрганаётган ёшлар сони 2 миллионга етган бўлса, "IELTS" имтиҳонидан юқори балл олганлар 5 карра кўпайган.

Юртимиздаги ёшлар сиёсати халқаро жамоатчилик томонидан ҳам эътироф этилмоқда. Ўзбекистон Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг "Ёшлар – 2030" стратегиясини жадал амалга ошираётган 10 та давлат қаторидан жой олди.

Учрашувда Президент ёшлар тадбиркорлигини қўллаб-қувватлашга қаратилган 3 та муҳим ҳужжат имзолаганини маълум қилди.

Биринчи ҳужжатга кўра, Ёшлар агентлиги ҳузурида жамғарма тузилиб, унга 100 миллион доллар маблағ ажратилди. Энди тадбиркор ёшларга 2,5 миллиард сўмгача имтиёзли кредитлар берилади, стартап лойиҳаларига 2 миллиард сўмгача инвестиция киритилади.

Иккинчи қарор билан, олий ўқув юрти битирувчиларининг бандлигини таъминлаш бўйича янги тизим йўлга қўйилади. Бунинг учун Миллий банкка 100 миллион доллар йўналтирилиб, уларнинг ташаббус ва ғояларини лойиҳага айлантириш бўйича банк хизматлари жорий этилади.

Шунингдек, битирувчиларни иш билан таъминлаш бўйича ҳокимлар, банк ва корхона раҳбарларидан иборат комиссия тузилади.

Учинчи ҳужжатга кўра, Алоқабанк ёшларнинг бизнес лойиҳаларини қўллаб-қувватловчи таянч банкка айлантирилиб, унга 200 миллион доллар берилади. Алоқабанк ўзини ўзи банд қилган ёшларнинг лойиҳалари учун 100 миллион сўмгача 7 йил муддатга имтиёзли микроқарз ажратади.

Шунингдек, якка тартибдаги тадбиркор бўлган, камида 20 нафар ёшни ишга олиб, кичик корхона очган ва ўқув маркази ташкил қилган ёш тадбиркорларга 7 йил муддатга 5 миллиард сўмгача имтиёзли кредит берилади. Банк кредитларининг камида 30 фоизи хотин-қизлар тадбиркорлиги учун йўналтирилади.

Маълумки, бу йил салкам 5 миллион 200 минг аҳолини банд қилиш мўлжалланган. Бунда ёшларнинг катта ўрни бор.

Масалан, томорқа ва даласидан самарали фойдаланиб, камида 100 миллион сўм даромад олган ёшларга соддалаштирилган тартибда ер ажратилади. Саноат ипотекаси орқали тайёр ишлаб чиқариш майдонини олган ёш тадбиркорга имтиёзли шартларда ускуналар ҳам олиб берилади. Хизмат кўрсатиш соҳасида ёшларни ишга олиб, камида 3 миллион сўм ойлик тўлаган корхоналарга ижтимоий солиқ 1 фоиз бўлади.

Креатив иқтисодиёт соҳаларида фаолият кўрсатаётганларнинг 98 фоизи ёшлар. Ўтган йили бу бўйича қонун қабул қилиниб, ҳуқуқий асослари белгиланди.

Энди ҳудудларда ҳам креатив индустрия парклари барпо этилади. Уларнинг резидентларига 2030 йил якунигача имтиёзли солиқ режими қўлланади. Бу борада бизнес мактаблари ташкил қилиниб, бизнес юритиш ҳамда электрон тижорат каби хизмат кўрсатишнинг инновацион усуллари ўргатилади.

Иш топишда хорижий тилларни билиш жуда муҳим. Шу боис чекка ҳудудларда чет тилларига ихтисослашган ўқув марказлари очган малакали ёшларларга 120 миллион сўмгача фоизсиз ссуда берилади. Шунингдек, хусусий ўқув марказларида хорижий тилларни ўрганадиган ёшларга тўловлари "2+6" ой шаклида қоплаб берилади.

IT соҳасида "Бир миллион дастурчи" лойиҳасига қўшимча 300 минг ёшлар жалб этилади. "Рақамли ижтимоий экотизим"ни жорий этиш бўйича узоқ муддатли стратегия ишлаб чиқилади.

Камбағалликдан чиқишнинг энг самарали ечими ҳам – бу таълим. Шу боис бундай оилалар фарзанди фоизсиз таълим кредити, қўшимча грант, шартнома тўловига ёрдам орқали ўқишга рағбатлантирилади. Билимга чанқоқ, лекин оилавий шароити оғир бўлган ёшларни хорижда ўқитиш бўйича янги тизим – "Ёрқин келажак" лойиҳаси жорий этилади.

Ёшлар агентлиги хорижда ўқиётган ҳар бир талабага бош-қош бўлади. Билимли йигит-қизлар дунёнинг "Топ-100" олийгоҳларига юборилиб, ўқиш ва яшаш харажатлари қоплаб берилади. Чет элда ўқиб келганлар миллий кадрлар захирасига киритилиб, давлат органларига танловсиз ишга олинади.

Бундан ташқари, рейтинги юқори халқаро университетларда илмий даража олган 35 ёшгача бўлган ёш олимларга уй-жой учун 10 йил муддатга 800 миллион сўмгача фоизсиз ссуда ажратилади. Нуфузли халқаро фан олимпиадаларида ғолиб ва совриндор бўлганлар учун бир марталик пул мукофоти миқдори 5 карра оширилади.

Энергетика, транспорт, урбанизация, замонавий архитектура, тиббиёт йўналишларида "Эл-юрт умиди" жамғармаси квоталари кўпайтирилади. Ҳарбий билим юртларининг намунали тингловчилари учун "Олий бош қўмондон" давлат стипендияси жорий этилади.

Келгуси ўқув йилидан бошлаб ўқувчилар ўртасида муҳандислик олимпиадалари ва танловлар ўтказиш йўлга қўйилади. Ғолиб бўлган битирувчи ёшлар техника олийгоҳларига грант асосида ўқишга киради.

Йиғилишда ёш авлодда миллий руҳиятни шакллантириш, ғоявий хуружлар ва зарарли ахборотлардан асраш масалаларига ҳам тўхталиб ўтилди. Тарбияси оғир болаларга алоҳида меҳр-эътибор кўрсатиш, ҳаётда ўрнини топишига кўмаклашиш зарурлиги айтилди.

Ватанпарварлик ҳиссини кучайтириш мақсадида 10-11-синф ўқувчилари ўртасида "Ватан таянчи" ҳаракати бошланди. Унга 300 мингдан зиёд ёшлар қамраб олинди.

Энди бу ҳаракат касб-ҳунар мактаби, техникум ва хусусий таълим ташкилотларида ҳам йўлга қўйилиб, 1 миллион ўқувчи қамраб олинади. Улар ўртасида турли танлов ва мусобақалар ташкил этилади. Шунингдек, маҳаллаларда "Шижоат ва ғайрат" спорт ўйинлари ўтказилади. Ғолиб маҳаллаларга спорт иншооти қурилиб, анжомлар билан таъминланади. "Ватан таянчи" ҳамда "Шижоат ва ғайрат" мусобақалари ғолибларига ҳарбий билим юртларига кириш учун тавсия берилади.

Мулоқотда сўзга чиққанлар мазкур режа ва ташаббуслар ёшлар учун янада кенг имкониятлар яратиши, уларнинг орзу-интилишларига рағбатлантирувчи куч бўлишини таъкидлашди.

Давлатимиз раҳбари ёшларнинг таклифларини маъқуллаб, уларни ҳар доим қўллаб-қувватлашга тайёр эканини билдирди.

## "ВАТАН РАВНАҚИ, ТИНЧЛИГИ ВА ҲИМОЯСИ ЙЎЛИДАГИ ҚАҲРАМОНЛИК УНУТИЛМАЙДИ"

**Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Иккинчи жаҳон урушида қозонилган ғалабанинг 80 йиллиги ҳамда Хотира ва қадрлаш кунига тайёргарлик кўриш ва муносиб нишонлаш тўғрисида"ги қарори ҳамда "Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиларини рағбатлантириш тўғрисида"ги Фармони қабул қилинди.**

Қарорга асосан, Иккинчи жаҳон урушида қозонилган ғалабанинг 80 йиллиги ҳамда Хотира ва қадрлаш кунига пухта тайёргарлик кўриш, уни юксак даражада ўтказиш, Ўзбекистон халқининг тарихий қаҳрамонлиги, фидокорона меҳнатини улуғлаш, ёш авлодни она Ватанга садоқатли, бугунги тинч, осойишта ҳаётни асраб-авайлашга қодир инсонлар этиб тарбиялаш мақсадида 9 май "Ватан равнақи, тинчлиги ва ҳимояси йўлидаги қаҳрамонлик унутилмайди" шиори остида ўтказилади.

Хотира ва қадрлаш кунига бағишланган тадбирларга тайёргарлик кўриш ва уларни ўтказиш дастурига мувофиқ, ёлғиз ва кам таъминланган Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиларининг яшаш жойларини таъмирлаб берилади, уларга ва уруш оқибатида ногирон бўлган шахслар, фронт орти меҳнат фахрийларига "Иккинчи жаҳон урушидаги ғалабанинг 80 йиллиги" юбилей медаллари топширилади. Фахрийларимизга доимий равишда патронаж хизмати йўлга қўйилади, санаторийларга бир нафар кузатувчиси билан бир марталик бепул йўлланмалар тақдим этилади.

Шунингдек, мустақиллик йилларида хизмат бурчини бажариш чоғида ҳалок бўлган ёки ногирон бўлиб қолган ҳарбий хизматчилар ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ходимлари ҳамда уларнинг оила аъзоларига моддий ва маънавий ёрдам кўрсатилади.

Фармонга кўра эса Иккинчи жаҳон урушида қозонилган ғалабанинг 80 йиллиги муносабати билан уруш қатнашчилари ва ногиронлари, уларга тенглаштирилган шахслар ҳамда, 1941–1945 йиллардаги уруш давридаги меҳнат фронти қатнашчилари қуйидагича бир марталик пул мукофоти билан рағбатлантирилади:

Иккинчи жаҳон уруши қатнашчилари ва ногиронларининг ҳар бирига 10 000 АҚШ доллари миқдорида;

Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиларига тенглаштирилган шахсларнинг ҳар бирига 25 000 000 сўм миқдорида;

1941–1945 йиллардаги уруш давридаги меҳнат фронти қатнашчиларининг ҳар бирига 3 000 000 сўм миқдорида.

# ФУРҚАТ ТУМАНИДА ЁШЛАР БАНДЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА НЕГА СУСТКАШЛИККА ЙЎЛ ҚЎЙИЛЯПТИ?

**Аччиқ, аммо очиқ гаплар**

**Президент Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимиз ёшлари билан мулоқоти чоғида таъкидлашича, ҳар йили меҳнат бозорига 600 мингдан ортиқ ёшлар кириб келмоқда. 2030 йилга бориб бу кўрсаткич 1 миллион нафарга етади. Бу, ўз навбатида, давлат ва жамият зиммасига катта масъулият юклайди.**




Давлатимиз раҳбари сўнгги йилларда мамлакатимизда ёшларни ҳар жиҳатдан қўллаб-қувватлаш тизими яратилгани, биргина "Ёшлар дафтари" орқали 2024 йилда 180 минг нафар ёшларга 345 миллиард сўмлик ёрдам кўрсатилгани, ўтган 8 йилда ёш тадбиркорлар сони 3 карра кўпайиб, бугун бизнес вакилларининг салкам 40 фоизини ёшлар ташкил қилаётганини айтиб ўтар экан, ишсиз ёшлар икки карра камайгани ва ишсизликдан холи маҳаллалар сони 1 минг 889 тага етган бўлсада, Шўрчи, Бувайда, Фурқат, Касби, Фориш туманларида ишсиз ёшлар кўплиги у ердаги раҳбарларнинг масъулиятсизлигидан далолат эканлиги кўрсатиб ўтдилар.

Юртбошимиз мавжуд ҳолатларга бежиз салбий муносабат билдирмади. Ҳақиқатан ҳам, истиқлол билан тенгдош бўлган Фурқат туманида кейинги йилларда ёшлар бандлигини таъминлаш, уларни касб-ҳунарга ўқитиш, билим ва малакаларини юксалтириш борасида етарли даражада натижага эришилгани йўқ.

Давоми 3-бетда

Yoshlar SAHIFASI
ORZU-INTILISHLARIMIZGA RAG'BATLANTIRUVCHI KUCH 2-бет

Сизнинг тенгдошингиз
"БИЗ ЁШЛАРНИНГ ҚАЛБИДА ЖАСОРАТ, ЯРАТУВЧАНЛИК БОР" 3-бет

Бунёдкор ФАРҒОНА
"Ferghana city" – ВИЛОЯТ МАРКАЗИНИНГ ЯНГИ ҚИЁФАСИ БЎЛАДИ 4-бет

# Yoshlar SAHIFASI



# PREZIDENT EZGU G‘OYALARINI AMALGA OSHIRAMIZ



**Mohinur MURODOVA,**
**Kolorado davlat universitetining fizika yo‘nalishi 1-bosqich talabasi**

**Xorijiy mamlakatda turib, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mamlakat yoshlari bilan muloqotini bevosita kuzatdim. Kelajak avlodlarining chuqur bilim olishi, yetuk mutaxassislar bo‘lib voyaga yetishlari uchun davlat rahbari tomonidan bunchalik g‘amxo‘rlik ko‘rsatilishi, albatta, e’tirofga loyiq.**

Mustaqil O‘zbekistonimizda vorislar kamoloti va mamlakatning yanada rivojlanishiga yordam beradigan kuchli kadrlar salohiyatini yaratishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu so‘zda emas, amalda bajarilmoqda. Buni davlatimiz rahbarining aytgan fikrlaridan, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida bir qator tashabbuslarni ilgari surganliklaridan ham anglash mumkin.

Men bu yil 20 yoshga to‘laman. Hozirda EYUF stipendiati sifatida Amerikada oliy ta’lim olyapman. Bundan tashqari, AQSH, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Germaniya, Yangi Zelandiya, Italiyaning "top" universitetlaridan 770 000 dollar miqdoridagi grant, jami bo‘lib 936 000 dollar sohibiga aylandim.

Yurtimizda biz yoshlarga yaratib berilgan imkoniyatlardan samarali foydalanib, "Girls Recode", "Girls power", "DataCamp", "Digital girls", "Registon LC", "ACT and global virtual school", "Swiss education group contest", "NASA space apps", "Immerse essay competition", "Media summer camp", "Iqtidorly", "Universe", "Sefer", "Lucid vision", "UniSat" kabi xalqaro tanlovlar, "Yoshlar tinch kelajakni yaratadi", "Vodiy qizlari bilan", "Yil tashabbuskori" loyihalarining g‘olibi bo‘lganman. AQSH, Turkiya, Misr, Tayland, Indoneziya, Hindiston, Buyuk Britaniya kabi davlatlarda bo‘lib o‘tgan konferensiyalarda o‘zbek delegati sifatida ishtirok etdim. 10 dan ortiq xalqaro sayt va jurnallarda ilmiy maqolalarim nashr etildi. 30 dan ziyod xalqaro yirik kompaniya va tashkilotlarning amaliyotchisiman. "Towards to the bright future" va "Bright Mission" loyihalari doirasida 400 nafar yoshlarning ta’lim olishiga yordam berdim. Bu muvaffaqiyatlarim aynan o‘z salohiyatimizni namoyon qilish va hech kimdan kam emasligimizni isbotlash uchun keng imkoniyatlar eshigi ochilgani tufaylidir.

Prezidentimiz muloqot chog‘ida ta’kidlaganidek, xorijda ta’lim olib qaytgan yoshlar Milliy kadrlar zaxirasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritilib, ular davlat organlariga tanlovsiz ishga olinadi. Bu – yoshlarga bo‘lgan e’tiborning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganiga misoldir. Bunday tizim davlat boshqaruviga yuqori malakali kadrlarni tez jalb qilish imkonini beradi.

Yana bir ahamiyatli tomoni – endilikda mehnat bozoriga til biladigan yoshlar kirib kelishini rag‘batlantirish uchun xususiy o‘quv markazlarida xorijiy tillarni o‘rganadigan yoshlarga xarajatlari "2+6" shaklida qoplab beriladi. Bunda o‘quv xarajatlarining dastlabki ikki oyi o‘quvchilarning o‘z mablag‘idan, qolgan olti oyi davlat hisobidan to‘lab beriladi.

Biz yoshlar islohotlarni ro‘yobga chiqarishdagi asosiy kuchmiz. Prezidentimiz qayta-qayta takrorlayotganidek, bir maqsad yo‘lidagi ezgu g‘oyalarni bugungi Yangi O‘zbekiston yoshlari amalga oshiradi.

# YANGI IMKONIYAT VA HUQUQIY KAFOLAT ESHIKLARI OCHILDI





**Muhammadamin G‘ANIYEV,**
**Yoshlar ishlari agentligi Farg‘ona viloyati bo‘limi rahbari**

**Davlatimiz rahbari bilan uchrashuvdan so‘ng yoshlarning barcha huquq va erkinliklari, imkoniyat va manfaatlarini himoya qilishda tashkiliy-huquqiy asoslar zamon bilan hamnafas takomillashib borayotganiga yana bir karra amin bo‘ldim.**

O‘zbekiston – yoshlar mamlakati. Shu bois, ularning taklif va mulohazalarini tinglash, tashabbus va g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash, kelgusida ulkan yutuq va natijalarni olib keladi.

Yurtboshimiz yoshlar bilan samimiy muloqot olib borar ekan, so‘zining avvalida ularni "oltin fond" deb atadi. Bu – har qanday yosh avlodning qalbida ertangi kunga bo‘lgan ishonch tuyg‘usini oshiradi.

Uchrashuv davomida ta’kidlab o‘tilgan 3 ta katta hujjatga binoan izlanuvchan va navqiron avlod uchun mutlaqo yangi davr boshlandi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

Birinchi hujjatga muvofiq, Yoshlar agentligi huzurida Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etilib, unga 100 million dollar mablag‘ ajratildi.

Mazkur imkoniyat viloyatimizda faoliyat olib borayotgan yosh tadbirkorlarimiz uchun ishlab chiqarish hajmi va turini ko‘paytirishlariga zamin yaratdi.

Ikkinchi qaror bilan oliygoh bitiruvchilari bandligini ta’minlash bo‘yicha yangi tizim yo‘lga qo‘yildi. Buning uchun O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankiga 100 million dollar resurs beriladi.

Bu borada viloyatimizning Furqat va Buvayda tumanlarini ishsizlikdan xoli hududga aylantirish borasida istiqbolli rejalarni ilgari surishni oldimizga maqsad qildik.

Uchinchi hujjatga ko‘ra, "Aloqabank" yoshlarning biznes loyihalarini qo‘llab-quvvatlovchi tayanch "yoshlar banki"ga aylantirilib, bunga 200 million dollar ajratildi.

Ahamiyatli tomoni, bank kreditlarining kamida 30 foizi xotin-qizlar tadbirkorligi uchun yo‘naltiriladi. Buning natijasida ishbilarmon, lider ayollar soni ortadi.

Yoshlarning qishloq xo‘jaligida bilim va ko‘nikma oshirishiga yordam berish maqsadida bu yil Qoraqalpog‘iston, Andijon, Jizzax, Toshkent viloyatlari qatori Farg‘onada ham bo‘sh turgan 3 ming 300 gektar yer yangicha tartibda ijaraga beriladi. Ilgari ajratilgan yerga mahsulot ekib, kamida 100 million so‘m daromad olgan yoshlarimiz ushbu tartib asosida mazkur yerlardan olishga muvaffaq bo‘lishadi.

Quvonarlisi, Yoshlar ishlari agentligining "Ibratli debat" loyihasi rahbari, farg‘onalik Azizbek Zaylobiddinovning barcha xarajatlari qoplangan holda davlat boshqaruvi va iqtisodiyot yo‘nalishida AQShning Garvard universitetida tahsil olish baxtiga muyassar bo‘lgani, yosh ijodkor Qobiljon Shermatovning Amir Temur shaxsiyati talqin qilingan "Qilichsiz g‘alaba" kitobining Prezidentimiz tomonidan tengdoshlariga namuna tarzida alohida e’tirof etilishi viloyatimiz yoshlari qalbiga faxr-iftixor tuyg‘ularini baxsh etdi.

Shuningdek, uchrashuvda yoshlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangicha uslubi, kreativ dasturlar, ijtimoiy xizmatga oid huquqiy kafolatlar ham o‘z aksini topdi. Jumladan, "Yoshlar daftari" tizimini ham yangilash, transformatsiya qilish vaqti kelgani ta’kidlandi. Hududlardagi yoshlar ishlari agentligi rahbarlariga yoshlarga ko‘rsatilayotgan barcha turdagi ijtimoiy paketlarni to‘liq xatlovdan o‘tkazib, ularni maqbullashtirish va natijadorligini oshirish bo‘yicha taklif kiritish masalasi ko‘ndalang qilib qo‘yildi.

Davlat rahbarining "Endi barcha tizimdagi rahbarlar yoshlarning baralla ovozini eshitishga majbur. Yoshlar buyuk kelajagimizning asosiy bo‘g‘ini ekanligini tushunmagan rahbar bizning safimizda bo‘lishga haqqi yo‘q", degan so‘zlari zimmamizdagi mas’uliyat hissini yanada oshirdi.



**Risolatxon MAMAJONOVA,**
**O‘zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Farg‘ona viloyati kengashi raisining xotin-qizlar va yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari**

# KELAJAKKA MUSTAHKAM QADAM QO‘YISH FURSATI KELDI

**O‘zbekiston yoshlari davlat tomonidan alohida e’tibor va qo‘llab-quvvatlashga ega bo‘layotgan bir davrda yashamoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 14 fevral kuni yoshlar bilan o‘tkazgan muloqoti ham aynan shu e’tiborning yorqin namunasidir. Uchrashuvda avlodlar kelajagini ta’minlashga qaratilgan muhim tashabbuslar muhokama qilindi, yangi imkoniyatlar yaratish uchun poydevor qo‘yildi.**

Davlatimiz rahbari aytib o‘tganlaridek, har yili 600 mingdan ortiq yoshlar mehnat bozoriga kirib kelmoqda va 2030 yilga borib bu ko‘rsatkich 1 million nafarga yetishi kutilmoqda. Demak, davlatning ustuvor maqsadi – yoshlarga mustahkam iqtisodiy, ilmiy va ijtimoiy zamin yaratishdir.

Oxirgi yillarda yoshlar bandligi, tadbirkorligi va ta’lim sohasida sezilarli o‘zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, yosh tadbirkorlar soni uch barobar oshdi, ishsiz yoshlar soni ikki barobar kamaydi, oliy ta’lim muassasalari soni esa 3 barobarga ko‘payib, qamrov 42 foizga yetdi. Ayniqsa, talaba xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlari davlat budjetidan qoplab berilayotgani sababli ular orasida oliy ta’limga qabul qilinganlar soni 11 barobar oshdi.

Yurtboshimiz tomonidan yoshlarga oid qabul qilinayotgan qarorlar faqat bugunning emas, balki kelajakning ham strategik poydevoridir. Dunyo bozorida raqobat kuchayib borayotgan bir vaqtda O‘zbekiston o‘z yoshlarini ilmiy va iqtisodiy jihatdan yetuk avlod sifatida tarbiyalashga katta e’tibor qaratmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlar tadbirkorligida mutlaqo yangi davrni boshlab beradigan 3 ta muhim hujjatni imzolagani – ularning kelajagi uchun kafolat bo‘lib xizmat qiladi. Bu hujjatlar yosh tadbirkorlar, olimlar va startap egalari uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochishi aniq.

Aytish mumkinki, yosh avlod vakillari bilan muloqot nafaqat yutuqlar tahlili, balki yangi islohotlarning boshlanish nuqtasi bo‘ldi. Endi yoshlarga – yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlardan foydalanib, kelajakka mustahkam qadam qo‘yish fursati keldi. Zero, buyuk kelajakni qurish mas’uliyati aynan bilimli, izlanuvchan va tashabbuskor yoshlar zimmasida.

# BALAND MARRALAR ZABT ETILADI

**Dilmurod O‘KTAMOV,**
**Bag‘dod tumanidagi "Yoshlar kichik sanoat zonasi" hududida faoliyat ko‘rsatuvchi "Yoshlar imkoni" korxonasi rahbari**

**Prezidentimiz shu yil 14 fevral kuni yoshlar bilan o‘tkazilgan muloqotda kelajak avlodlarining ilm-fan cho‘qqilarini egallashi, o‘z tadbirkorligini yo‘lga qo‘yishi, daromadi yuqori bo‘lgan kasb-hunar egallashi, bir so‘z bilan aytganda, har tomonlama kamol topishi uchun barcha imkoniyat va imtiyozlarni yaratib berish, ularni qo‘llab-quvvatlash zarurligi haqida batafsil so‘z yuritdi. Tengdoshlarimiz erishgan yutuqlari bilan ko‘pchilikka o‘rnak bo‘layotganligi, 2025 yilda O‘zbekistonda yoshlar ishsizligiga barham berish ishlari yangi bosqichga ko‘tarilishi alohida ta’kidlandi.**

O‘tgan sakkiz yilda yosh tadbirkorlar soni uch barobarga ko‘payib, ular mamlakatimizdagi biznes vakillarining 40 foizini tashkil qilishi, yoshlar o‘rtasida ishsizlik ikki martaga kamaygani, Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etilishi va endi tadbirkor yoshlarga 2,5 milliard so‘mgacha imtiyozli kredit berilishi va muloqotda aytilgan boshqa raqamlar viloyatimiz yigit-qizlarini benihoya ruhlantirdi, yangi marralarni zabt etish uchun g‘ayrat-shijoat baxsh etdi.

"Aloqabank" – yoshlarning biznes loyihalarini qo‘llab-quvvatlovchi tayanch "yoshlar banki"ga aylantirilishi, 7 yil muddatga 100 million so‘mgacha, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lgan, kamida 20 nafar yoshni ish bilan ta’minlab, kichik korxona ochgan va o‘quv markazi tashkil etgan tengdoshlarimizga 5 milliard so‘mgacha imtiyozli kredit ajratilishi katta imtiyoz va chinakam g‘amxo‘rlik ifodasidir.

Davlatimiz rahbarining ushbu muloqoti yoshlar hayotida tarixiy voqea bo‘lib, faoliyatimizni yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etishiga ishonaman.

Korxonamiz ishlab chiqarish uskunalarini mahalliylashtirish faoliyati bilan shug‘ullanadi. 30 nafar ishchilarimizning 70 foizini yoshlar tashkil etadi. Biz davlatimiz rahbarining yuksak ishonchiga munosib bo‘lish uchun yanada shijoat bilan mehnat qilib, Vatanimizning iqtisodiy qudratini yuksaltirishga o‘z hissamizni qo‘shamiz.

# ORZU-INTILISHLARIMIZGA RAG‘BATLANTIRUVCHI KUCH



**Azizbek ZAYLOBIDDINOV,**
**Oltiariq tumani**

**"Kelgusida Uchinchi Renessans poydevorini yaratadigan yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug‘bek va Alisher Navoiylar qayerdan paydo bo‘ladi? Bu ulkan vazifalarni kim bajaradi?". Prezidentimiz biz yoshlar bilan muloqot chog‘ida shunday savollarni o‘rtaga tashladi va ta’kidlab o‘tdilarki, bu ezgu g‘oyalarni bugungi Yangi O‘zbekiston yoshlari amalga oshiradilar.**

Davlat rahbarining bunday ishonchi meni ham mamnun etdi, o‘zimni mamlakatimizning bugungi va ertangi bunyodkorlaridan biri sifatida his etdim. Biz kutmaganimizdan-da, yangiliklarni eshitib, shu aziz yurt farzandi ekanligimdan faxrlandim.

Inson uchun ona tili bilan birga xorijiy tillarni bilish dunyoga chiqishda juda muhim. Buni o‘z hayotim davomida yanada teranroq anglab yetdim. Men Farg‘ona shahridagi 8-umumta’lim maktabida hamda Toshkentdagi xalqaro Vestminster universiteti qoshidagi akademik litseyda o‘qib yurib, ingliz tilini mukammal o‘rganishga harakat qildim. Shu bilan birga, Yoshlar ishlari agentligi qoshidagi "Ibratli debat" loyihasini boshqarib, 3000 ga yaqin o‘quvchilarga ingliz tilidan beminnat saboq berib keldim. Tinimsiz izlanishlarim samara berib, o‘tgan yilning dekabr oyida Amerika Qo‘shma Shtatlarining Garvard universitetiga 360 ming dollar miqdoridagi grant bilan o‘qishga qabul qilindim.

Prezidentimiz iqtidorli, bilimga chanqoq, lekin og‘ir oilaviy sharoiti sababli o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lmagan yoshlarni xorijda o‘qitish bo‘yicha yangi tizim – "Yorqin iste’dod" loyihasi joriy etilganini aytib o‘tgani alohida e’tiborga molik. Endilikda mahallalardan ijtimoiy himoyaga muhtoj, ilm olishga tashna yoshlar saralab olinadi, ularning salohiyatiga mos xorijiy oliygoh tanlanib, tayyorgarlik kurslarida o‘qitiladi. Har yili saralashdan o‘tgan 1 ming nafar yoshlar dunyoning "top-100" oliygohlariga yuborilib, o‘qish va yashash xarajatlari qoplab beriladi. Shuningdek, bunday oliygohlarda ilmiy daraja olgan 35 yoshgacha bo‘lgan yoshlarga uy-joy uchun 10 yil muddatga ssuda ajratiladi. Bunday yangilik men kabi yoshlarga quvonch baxsh etganini so‘z ilan ifodalash qiyin.

Men xorijda davlat boshqaruvi va iqtisodiyot yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olib, mutaxassislik diplomiga ega bo‘lgandan so‘ng, ona yurtimizga qaytgach, bilim va iqtidorimni soha rivojiga, mustaqil Vatanimizning iqtisodiy taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishni niyat qilganman. Yurtboshimizning menga ishonchi, ota-onamga aytgan minnatdorchilik so‘zlari orzu-intilishlarimga rag‘batlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi.

# YURTGA TAYANCH VA SUYANCH BO‘LAMIZ



**Ochig‘ini aytsam, maqsadlarim tomon dadil qadam tashlashimda Yurtboshimizning "Bitta qizni o‘qitsak, butun oilani o‘qitgan bo‘lamiz. Oila bilimli, ma’rifatli bo‘lsa, butun jamiyat bilimli, ma’rifatli bo‘ladi", degan so‘zlari kuch beradi.**

**Farangiz MO‘MINOVA,**
**Farg‘ona shahar, "Jo‘ydam" mahalla fuqarolar yig‘ini**

Xotin-qizlarni ilm-u ma’rifat cho‘qqisini egallashga undovchi bu fikrlar davlatimiz rahbarining Ko‘ksaroy qarorgohida yoshlar bilan qilgan muloqoti davomida qayta jarang sochdi.

Muloqotda kambag‘allikni qisqartirishning eng samarali yechimi ta’lim ekani ta’kidlandi. Shuning uchun kam ta’minlangan oilada hech bo‘lmaganda bitta farzand oliy ma’lumotli bo‘lishi uchun zarur sharoitlar yaratilishi lozimligi haqida so‘z bordi.

Endilikda kambag‘al oilaning farzandiga ta’lim krediti foizsiz berilishi, qo‘shimcha grant ajratilib, kontrakt to‘lovining bir qismi qoplanishi men kabi yoshlar taqdirining o‘zgarishiga sabab bo‘ldi.

O‘tgan yilda Farg‘ona davlat universitetining chet tillar fakultetiga o‘qishga kirdim, ammo kontrakt asosida ta’lim olishga oilaviy sharoitimiz to‘g‘ri kelmadi.

Oliy ma’lumotli bo‘lishga qat’iy maqsadim borligi sabab, ingliz tili fanidan xalqaro IELTS imtihonida B2 darajasini oldim. Prezidentimiz tomonidan ehtiyojmand yoshlarga yaratgan sharoit, shuningdek, qo‘lga kiritgan yutug‘im joriy yilda talabalik baxtiga erishishimda, albatta, asqatadi.

Muloqot davomida ta’kidlab o‘tilgani kabi kelgusida "C1" darajani olib, olis va chekka hududlarda chet tillariga ixtisoslashgan o‘quv markazini ochmoqchiman. Buning uchun ham davlatimizning g‘amxo‘rligi bor: xuddi shunday maqsadni ilgari surgan yoshlarga 120 million so‘mgacha foizsiz ssuda beriladigan bo‘ldi.

Kelajak avlodlariga ko‘rsatilayotgan e’tibor Yangi O‘zbekistonda yoshlarning bilim olish istagi birinchi galdagi vazifa sifatida qaralishiga yorqin misol bo‘ldi. Biz Prezidentimiz ishonchini oqlab, albatta, yurtga tayanch va suyanch bo‘lamiz.

## Сизнинг тенгдошингиз

**Ёшларни илмга қизиқтирувчи медиа контентлар, энг яхши интеллектуал шоулар яратишга Ёшлар агентлиги томонидан 100 миллион сўмгача грантлар ажратилади. Бу ҳақда Президент Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимиз ёшлари билан мулоқотида маълум қилинди.**





# “БИЗ ЁШЛАРНИНГ ҚАЛБИДА ЖАСОРАТ, ЯРАТУВЧАНЛИК БОР”

Дарвоқе, ёшларимиз турли соҳалардаги ютуқлари билан тенгдошларига ўрнак бўлиб келишмоқда. Улар яратган ижод намуналар нафақат юртимиз, балки хорижда ҳам катта қизиқиш уйғотмоқда.

Шундай иқтидорли ёшлардан бири қўштепалик Жаҳонгирмирзо Иброҳимовдир. У давлат раҳбари билан учрашувдан сўнг, келажакда янги марраларни забт этишни кўзлади. Бунинг учун унда етарли салоҳият бор, албатта.

Жаҳонгирмирзо илм-фан, муҳандислик ҳамда 3D бўйича глобал дунё учун контент тайёрлайди. Айни вақтда ижтимоий тармоқларда 750 мингдан ортиқ обуначилари бор. Биз у билан бу соҳага кириб келиши, келгусидаги мақсад ва режалари хусусида суҳбатлашдик.

**– Жаҳонгирмирзо телевизор орқали сизнинг Президентимиз билан мулоқотингизни кўриб, шундай билимдон, ташаббускор юртдошимиз борлигидан беҳад қувондик. Аслида, IT соҳасига қандай кириб келгансиз?**

– Ўғил бола табиатан техникага қизиқувчан бўлади. Менда бу иштиёқ ёшлигимдан жуда юқори эди. 2-синфда ўқиб юрганимда дадам компьютер совға қилди. Мустақил равишда технологияни ўзлаштирдим. Изландим, ўргандим ва дастурлаш бўйича яхшигина билимга эга бўлдим.

Соҳага чуқурроқ кириб бориш, келгусида IT сир-синоатини мукаммал эгаллаш ниятим борлигини ота-онамга айтганимда, улар бироз иккиланишди, чунки мамлакатимизда ҳали бу тизим бугунгидек оммалашмаганди. Мақсадга эришиш йўлидаги дастлабки одимни инглиз тилини мукаммал ўрганиш билан ташладим. Тил билиш менга дунё эшикларини очди. Умумтаълим мактабини битирганимдан сўнг Тошкент шаҳридаги INHA университетига ўқишга кирдим. Нуфузли олийгоҳ ахборот технологиялари борасида юқори малакали кадрлар тайёрлайди. Машғулотлар инглиз тилида олиб борилади. Бунинг натижасида талабалик йилларимдаёқ веб дастурчи сифатида ишлай бошладим.

**– 21 ёшда дунё ахборот майдонида шахсий бренд яратиш – “Engineericly” каналига асос солишингизга нима туртки берди?**

– 2020 йилдаги карантин сабабли уйда қолишга тўғри келди. Буни мен чеклов эмас, ўз устимда ишлаш учун катта имконият деб билдим. Хонадонимизда кичик студия яратиб, инглиз тилида 5-6 дақиқалик видеороликлар тайёрладим. Шундай интилишларим ортидан YouTube ижтимоий тармоғида шахсий саҳифам дунёга келди. Кузатувчилар сони ортгани сайин, минглаб обуналар саҳифамга аъзо бўлишни бошлади. Вақтимнинг асосий қисмини фақат фойдали контентлар тайёрлаш ва уни улашишга сарфлайдиган бўлдим. Шу тариқа уйдан чиқмасдан туриб, атиги 2-3 дақиқа вақт сарфлаб, оила бюджетига ҳисса қўшиш мумкинлигини англаб етгандим. Албатта, бунинг учун билимнинг ўзи камлик қилади. Агар иқтидор ва қизиқиш бўлмаса, аудитория сизни кўнгилдагидек қабул қилмайди. Бу эса муваффақиятсизлик демакдир.

**– Ёшлар сиз каби халқаро даражадаги фрилансер даражасига эга бўлиши учун нималар қилиши керак ва бундан қанча даромад топса бўлади?**

– Ҳар бир ёшнинг қалбида буюк ишларни қилишга қодир жасорат бор. Уни рўёбга чиқариш учун замон билан ҳамнафас бўлиш керак. IT – бугун ва келажак демакдир. Инглиз тили ва ахборот технологияларини яхши ўзлаштириш шахсий ривожланишга, дунё бозорига чиқиб, ўз ўрнингизни топишга, эркин ва муносиб яшашга чорлайди.

Дунёда дастурлаш тизими, робототехника шу қадар ривожланиб кетмоқдаки, ҳатто мутахассислар ғоя ва лойиҳаларини тез янгилашга улгуришмаяпти. Ҳозир жаҳонда бу соҳани билганларга талаб жуда юқори. Энг катта даромадга эга бўлишдан бири ҳам шу йўналишда. 6 миллион сўмдан бошлаб, 50 миллион сўмгача даромад олаётган ёшларимиз талайгина.

Ҳозирда Марғилон шаҳрида “Муҳандисона” масъулияти чекланган жамиятимиз орқали 10 нафардан зиёд ёшларга сабоқ бериш баробарида, орттирган тажрибам асосида уларнинг малакасини оширишга ҳаракат қиляпман. Биргаликда яратган 300 дан ошган контентларимиз 50 000 АҚШ долларилик хизматлар экспортининг амалга оширилишига сабабчи бўлмоқда. “PCB way”, “Creality”, “FLSum”, “QIDITech”, “Nordvpn” каби кўплаб хорижий корхоналар билан расмий ҳамкорлик ўрнатдик.

**– Мамлакатимизда ёш дастурчиларга қандай имкониятлар яратилмоқда?**

– Ахборот технологияларини пухта ўрганиш – жаҳон билан ҳамоҳанг равишда юртимизда ҳам трендга айланди. Бу эса, соҳада хизматлар ҳажмини оширди. Дунё ахборот бозорида ўзбек дастурчиларига бўлган талаб юқори. Шу боис, мамлакатимизда соҳани ривожлантиришга бўлган эътибор сезиларли даражада ортмоқда.

Президентимиз билан мулоқот давомида Тошкент шаҳридаги “Ёшлар ижод саройи”да намунавий “Креатив парк” ташкил этилиши, креатив индустрия паркларининг ҳудудларда ҳам барпо этилиши таъкидланди. Уларнинг давлат томонидан зарур ресурс ва инфратузилма билан таъминланиши катта имконият демакдир.

“Engineericly” лойиҳаси орқали халқаро даражадаги креатив ишлаб чиқаришда эришаётган ютуқларим давлатимиз раҳбари томонидан муносиб эътироф этилиши ҳам юртимиз ёшларига катта эътибор намунасидир.

**Суҳбатни Муаттар МАҲМУДОВА олиб борди.**

# ФУРҚАТ ТУМАНИДА ЁШЛАР БАНДЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА НЕГА СУСТКАШЛИККА ЙЎЛ ҚЎЙИЛЯПТИ?

Бошланиши 1-бетда.

Маълумотларга кўра, 2024 йилда ва ҳозирги кунга қадар Президент виртуал ва Халқ қабулхоналарига туман ёшларидан 814 та мурожаат келиб тушган бўлса, уларнинг аксарияти иш билан таъминлаш, моддий имкониятини яхшилашга қаратилган аризалардир.

– Оилавий шароитимиз олий таълим муассасаларида ўқиш имкониятини бермади. Ўрта махсус маълумотга эга бўлганим сабабли иш топишга қийналяпман, – дейди "Ардахшон" маҳалла фуқаролар йиғини, Узунчек қишлоғида истиқомат қилувчи Ирода Раҳмонова. – Тумандаги масъул ташкилотларга бир неча марта мурожаат қилган бўлсам-да, ҳалигача натижа бўлгани йўқ.

Туманда тиббиёт йўналишида ҳам иш топиш осон эмас. Ҳамширалик дипломини олиб, соғлиқни сақлаш муассасаларига мурожаат қилсангиз, ҳозирча жой йўқ, рўйхатга олиб қўямиз, деган баҳона билан эшикни кўрсатишади. Бир танишимнинг тиббиёт техникумини битирганига уч йил бўлди. Бироқ ҳалигача иш тополгани йўқ. У турли даражадаги раҳбарларга бир неча бор мурожаат қилгани, аммо натижа бўлмаганини айтиб қолди. Тиббиёт бирлашмасидаги турнақатор навбати келгунича, яна бир неча йилини бой беришини ўйлаб, немис тилини ўрганишга қарор қилгани ва Германияга ишлаш учун кетмоқчилигини билдирди.

Тўғри, ёшларнинг бандлигини таъминлаш, даромадини ошириш мақсадида ҳар йили субсидия асосида юзлаб йигит-қизларга меҳнат анжомлари, тикув машиналари туҳфа қилиниб, имтиёзли кредитлар ажратилади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 5 апрелдаги “Ёшларга ер ажратиш орқали уларнинг даромадларини ошириш ва бандлигини таъминлаш, шунингдек, янги ер майдонларини ўзлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорига асосан, ишсиз ёшларга 15 сотихдан ер майдони ажратиб берилмоқда. Жумладан, 2024 йил аввалида Фурқат туманида “маҳалла еттилиги” томонидан ер олиш истагини билдирган 1 минг 300 нафар талабгорлар рўйхати шакллантирилди. Шунингдек, 1 094 та лотдан иборат 260 гектар ер майдони аукцион савдоларига қўйилиб, 1 минг 92 нафар ёшлар томонидан 259,4 гектар ер майдони (режага нисбатан 98,8 фоиз) савдоларда ютиб олинди. Ўз ўрнида, уларнинг маълум қисми бандлиги таъминланди.

Бироқ, ёшлар берилган имкониятлардан қай даражада фойдаланади, деҳқончиликнинг сир-синоатларидан хабардорми, қишлоқ хўжалиги соҳасида ишлашни, шу орқали рўзғор тебратишни истайдими ёки “текин бўлса, тошни ют” қабилида ерни ўзиники қилиш билан чекланадими – буни вақт кўрсатади.

– Ўтган йили иш излаб хорижий давлатлардан бирига кетишни ўйлаб турган вақтимда маҳалламиздаги ёшлар етакчиси ер бериш таклифини айтди, – дейди эшонлик Абдусаид Қўчқоралиев. – Аукцион орқали 15 сотих ер ютиб олдим. Биринчи марта деҳқончилик билан шуғулланиб, помидор экдим. Укам ва оила аъзоларим менга кўмаклашди. Бошланишига кутганимдек даромад олдим.

“Гуруч курмаксиз бўлмайди”, деганларидек, айрим фуқаролар орасида боқимандалик кайфиятидагилар ҳам топилади. “Қўқонбой” маҳалла фуқаролар йиғинида истиқомат қилувчи Ҳазратали Мадаминов ҳозир 18 ёшда. Ҳудуднинг ёшлар етакчиси унинг оилавий аҳволини инобатга олиб, IT курсида бепул ўқишини таъминлади. У аллақачон замонавий ҳунар эгаси бўлиб, оиласи даромадига ҳисса қўшаётгандир дерсиз, афсуски ундай эмас. Ота-онаси кунда-кунора маҳалла идорасига келиб, фарзандининг “Ёшлар дафтари”га киритилгани ва хусусий университетнинг 1-курсида таҳсил олаётган ўғлининг контрактини тўлашга ёрдам сўраса, бошқа сафар уйларини таъмирлаб беришларини “талаб қилади”. Таассуфки, бугун ота-онасидан бундай “тарбия” олаётган фарзандлар эртага уларнинг “анъанаси”ни такрорламасликларига ҳеч ким кафолат беролмайди.

Қанчалик аччиқ бўлмасин, айтишга мажбурмиз: бугун меҳнат бозорига кириб келаётган юзлаб ёшларга туманда етарли даражада иш ўрни яратилмаган. Ҳудудда бирорта истиқболли ёки барқарор ишлаётган саноат корхонаси йўқ. Янгитдан ташкил этилиши назарда тутилган инвестицион лойиҳалар ҳам ярим йўлда қолиб кетаётгани бор гап. Сўнгги беш йилликда янги тайинланган туман раҳбарларининг бирор янгилик қилмай лавозимларидан озод қилинаётгани сабабли бу йўналишдаги ишлар якунига етмай қолмоқда. Жумладан, 2021 йил апрель ойида Президент иштирокида ёшларнинг бандлиги ва уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича ўтказилган видеоселектор йиғилишида ёшлар билан ишлашни муносиб ташкил қилмагани учун Фурқат туманининг ўша даврдаги ҳокими ишдан бўшатилди.

Ҳудудлар ривожи, ободлиги кўп жиҳатдан раҳбарга, унинг одилона сиёсатига боғлиқ. Бу фикр ҳаётда ўз исботини топган. Шу билан бирга, масъул идора, ташкилот ва муассаса раҳбарлари ҳам ўзлари ташаббус билан чиқиб, ҳар бир ёшнинг мурожаатини тингласа, эртамиз эгаларига балиқ эмас, қармоқ тутса, бизни ўйлантираётган масалаларга ечим топилар, катта ҳаёт остонасида турган йигит-қизлар меҳнат бозорида ўзига мос ишга эга бўлармиди?!

Касбим тақозосидан туман фаоллари йиғилишида иштирок этаман. Тадбир меҳнат ва ижро интизоми соҳасидаги аҳволни таҳлил қилиш билан бошланиши бежиз эмас. Зеро, ижро интизоми дегани – ишга вақтида келиб-кетишу, “юқори”дан берилган топшириқларга “бажарилди” дея жавоб ёзиш ва яна дақиқа санаб кун ўтказишдан иборат эмас. Аксинча, иш жараёнида фидойилик, ташаббус кўрсатиш, фаолият сифати ва маҳсулдорлик учун қайғуриш ижро интизомининг энг устувор йўналишларидан. Иш бор жойда муайян камчилик ҳам бўлиши – табиий ҳол, албатта. Бироқ, бепарволик жандасига ўралиб юраверилса, кутилган натижага эришиш душвор.

Президентимиз ўтказган видеоселектор тарзидаги мулоқотда бугунги кунда олийгоҳларни тугатаётган 90 минг ёшлар мутахассислиги бўйича иш топишда қийналаётгани, шу боис, олийгоҳ битирувчилари бандлигини таъминлаш бўйича янги тизим яратиш зарурлигига урғу бердилар. Эндиликда битирувчиларни иш билан таъминлаш бўйича ҳокимлар, банк ва корхона раҳбарларидан иборат комиссия тузилади. Улар янги иш жойларини яратиш, кадрларга эҳтиёж, бўш ўринларга ёшларни жойлаштириш масалаларини ҳал этади.

– 26 ёшдаман. Қўқон давлат педагогика институтини тамомлаганимга икки йил бўлди, – дейди “Қўқонбой” маҳалла фуқаролар йиғинида яшовчи Равшанбек Валижонов. – Мутахассислигим бўйича иш тополмагач, кичик тадбиркорликнинг бир неча турларида ўзимни синаб кўрдим, лекин ҳалигача йўлимни тополганим йўқ.

Таҳлиллларга кўра, жиноят ва ҳуқуқбузарлик содир этган шахсларнинг аксарияти доимий иш ўрнига эга бўлмаган, кун ўтса бўлди қабилида умр кечираётган шахслардир. Шу боис, Президентимиз барча тоифадаги раҳбарларни ёшлар ишсизлигининг салбий оқибатлари, ўз вақтида банд бўлмаган шахслар билиб-билмай номақбул ишларга қўл уриши, диний радикализм таъсирига тушиб қолиши, жиноят кўчасига кириб қолиши мумкинлигидан огоҳлантирди.

Хулоса ўрнида айтмоқчиманки, ишсизликни қисқартиришда туманнинг “драйвер” соҳаларини ривожлантириш ва ихтисослаштиришни ташкил этиш зарур. Фурқатда озиқ-овқат, электроника, қурилиш материаллари ишлаб чиқариш, тикув-трикотаж, умумий овқатланиш, иссиқхоначилик, паррандачилик, савдо, мебелсозлик, чорвачилик, асаларичилик, узумчилик, балиқчилик, қулупнайчилик, қўзиқорин етиштириш каби соҳалар кенгайтирилса, қўшимча иш ўринлари яратилади. Шунингдек, тиббий ва таълим хизматлари кўрсатиш соҳаларини ривожлантириш орқали ҳам янги иш ўринларини яратиш мумкин. Бунда ҳар бир раҳбар алоҳида ташаббускорлик кўрсатсагина, Юртбошимиз томонидан куюнчаклик билан таъкидланган камчилик ва муаммолар бартараф этилиб, туманда бирорта ҳам ёшнинг ишсиз қолмаслиги кафолатланган бўларди.

**Дурдона ҒОФФОРОВА,**
**Ўзбекистон Журналистлар уюшмаси аъзоси.**

## “ҚУВА ДОН МАҲСУЛОТЛАРИ” АЖ

**Жамият акциядорларининг навбатдан ташқари умумий йиғилиши 2025 йил 12 март куни, соат 11:00 да Фарғона вилояти, Қува тумани, “Тошҳовуз” МФЙ, Сарак кўчаси, 27-уйда, “Қува дон маҳсулотлари” АЖ мажлислар залида ўтказилишини маълум қилади.**

**КУН ТАРТИБИДА:**

**1.** Акциядорлар умумий йиғилиши регламентини тасдиқлаш.

**2.** Акциядорларнинг умумий йиғилиши саноқ комиссияси сони ва шахсий таркибини сайлаш.

**3.** Қишлоқ хўжалигини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш жамғар-маси маблағларидан шаклланган қарздорликни жамият устав капиталига йўналтириш.

**4.** Эълон қилинган акцияларнинг энг кўп миқдорини белгилаш.

**5.** Жамиятнинг янги таҳрирдаги уставини тасдиқлаш.

**6.** Жамият кузатув кенгашини сайлаш тўғрисида.

Акциядорлар реестрининг ёпилиш санаси 2025 йил 18 февраль ва 6 март. Акциядорларни рўйхатга олиш соат 10:00 да Фарғона вилояти, Қува тумани, “Тошҳовуз” МФЙ, Сарак кўчаси, 27-уйда, “Қува дон маҳсулотлари” АЖ мажлислар залида амалга оширилади.

Акциядорлар шахсларини тасдиқловчи ҳужжат ва ишончли вакиллар тегишли тартибда расмийлаштирилган ишончнома асосида келишлари сўралади.

Умумий йиғилишга боғлиқ ҳужжатлар билан “Қува дон маҳсулотлари” АЖ Қимматли қоғозлар бўлимида танишиш мумкин.

**Телефон: 90 301-95-90.**

**Кузатув кенгаши.**



Фарғона вилояти ИИБ ЖХХ ЖТСБ Кинология бўлинмаси томонидан жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатига асосан, уларга тегишли итларни умумий бўйсунувчанлик ҳамда ҳимоя-қоровул кўникмалари бўйича тайёрлаш юзасидан пуллик хизмат кўрсатиш йўлга қўйилди.

Агарда ўзингизни қизиқтирган саволларингиз бўлса, қуйидаги телефон рақамига ёки манзилга мурожаат қилишингиз мумкин.

**Телефонлар: 99 055 40 42, 77-707-60-80.**

**Манзил:** Фарғона шаҳар, “Қиргули” МФЙ, Меъмор кўчаси, 3/5-уй.

Хизматлар лицензияланган.

# Маъмурий судларнинг ваколатлари кенгаймоқда



**Сўнгги йилларда мамлакатимизда давлат органлари билан муносабатларда фуқаролар ва тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари самарали ҳимоясини таъминлашда тизимли ислоҳотлар амалга оширилди.**

Жаҳон тажрибасидан келиб чиқиб, суд тизимининг янада сайқалланишига, инсон қадри учун тамойилини янада мустаҳкамлашга йўл очилмоқда. Айниқса, 2017 йилда мамлакатимиз тарихида илк маротаба маъмурий судлар ташкил қилинганлиги фуқаролар ва тадбиркорлик субъектларининг давлат органлари ҳамда мансабдор шахсларнинг қонунга хилоф қарорлари, ҳаракатлари устидан судга шикоят қилишга оид конституциявий ҳуқуқларини таъминлашда муҳим қадам бўлди.

Ўтган даврда маъмурий судлар томонидан кўриб чиқилган 120 мингга яқин ариза ва шикоятларнинг 57 фоизи қаноатлантирилиб, фуқаролар ва тадбиркорлик субъектларининг бузилган ҳуқуқлари тикланганлиги ҳам маъмурий судларнинг қонун устуворлигини таъминлаш ҳамда шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилишда муҳим институт сифатида шаклланганлигини кўрсатмоқда.

Бу борада маъмурий судлар зиммасига шикоятларни кўриб чиқишда “фаол иштирок этиш” тамойили асосида низони тўғри ҳал қилиш учун далилларни мустақил йиғиш мажбурияти юклангани, фуқаролар ва тадбиркорлик субъектларига ўз ҳуқуқларини ҳимоя қилишда ҳар томонлама кўмак бериш, суд қарори ижросини таъминламаган мансабдор шахсларга жарима қўллаш ваколати берилгани ҳам ушбу институт такомиллашиб бораётганлигидан далолат беради.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 30 январда қабул қилинган “Фуқаролар ва тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқларини суд орқали ҳимоя қилишнинг замонавий механизмларини жорий этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори мамлакатимизда муҳим ва замонавий ижтимоий-иқтисодий муаммоларга ечим излашга қаратилган муҳим ҳужжатдир.

Ушбу қарор давлат раҳбарининг халқ орасидаги ижтимоий барқарорликни таъминлаш, иқтисодий ўсишни рағбатлантириш ва халқнинг турмуш даражасини яхшилашга қаратилган яна бир муҳим қадами сифатида кўрилади.

Қарорнинг асосий мақсади иқтисодий ривожланишни таъминлаш, ишсизликка қарши курашиш, давлат хизматларини аҳолига сифатли ва тезкор етказишга қаратилган. Унда кўплаб муҳим лойиҳалар, дастурлар ва механизмлар белгиланган бўлиб, уларнинг барчаси аҳоли фаровонлигини оширишга ва ишлаб чиқариш салоҳиятини яхшилашга қаратилган.

Қарорга кўра, маъмурий судлар фаолиятини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари этиб:

давлат органлари билан муносабатларда фуқаролар ва тадбиркорлик субъектлари ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларининг ишончли ва самарали ҳимоя этилишини устувор равишда таъминлаш;

фуқаролар ва тадбиркорлик субъектларининг бузилган ёки низолашилаётган ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини тиклашда суднинг фаол иштироки принципини қўллаш механизмларини кенгайтириш;

давлат органлари ва мансабдор шахсларнинг фаолияти устидан самарали суд назоратини ўрнатиш;

маъмурий суд ишларини юритишда низоларни судгача ҳал қилиш механизмларини такомиллаштириш;

фуқаролар ва тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқларини ҳимоя қилишда маъмурий судларнинг ролини кучайтириш орқали аҳолининг суд тизимига бўлган ишончини янада ошириш;

давлат органлари томонидан суд қарорлари ижро этилиши устидан назоратнинг таъсирчан механизмларини тўлиқ жорий этиш;

маъмурий юстиция тизими ривожланган давлатлар тажрибаси асосида маъмурий судлар фаолиятини такомиллаштириб бориш белгиланди.

Суд муҳокамаларида мансабдор шахслар томонидан судга нисбатан ҳурматсизлик қилинганда, суд муҳокамасига тегишли тартибда чақирилган бўлса-да, ҳозир бўлмаслик ҳолатлари кўп маротаба такрорланиб, суд муҳокамалари муддатининг узайишига сабаб бўлар эди, энди қарорга кўра, қарори, ҳаракати (ҳаракатсизлик) устидан шикоят қилинаётган давлат органи мансабдор шахси ёки унинг вакили суд мажлисида мажбурий иштирок этишини таъминлаш юзасидан қонунчилик ҳужжатларига ўзгартириш киритилиши лозим бўлади.

Шунингдек, маъмурий суд иш юритувида ишларнинг тезкор ва сифатли кўриб чиқилишини таъминлашга ҳамда фуқаролар ва тадбиркорлик субъектларига ўз ҳуқуқларини ҳимоя қилиш учун қўшимча имкониятлар яратиш мақсадида дастлабки эшитув институтини жорий этиш белгиланди, унда судья томонидан иш суд муҳокамасига тайинланмасдан олдин ҳужжатларни ўрганиш, камчиликларни бартараф этиш, ушбулар билан судга мурожаат қилган шахсларнинг оворагарчилигини камайтириш кўзда тутилмоқда.

Бундан ташқари, маъмурий судга низоларни ҳал этиш жараёнида судга ҳурматсизлик қилиниши ва суднинг хусусий ажрими бўйича чоралар кўрмасликка оид ҳуқуқбузарликлар аниқланганда, маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни кўриш ваколатини беришни назарда тутувчи қонун лойиҳаси ишлаб чиқилади.

Мухтасар қилиб айтганда, мазкур қарор фуқаролар ва тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини суд орқали ҳимоя қилишнинг замонавий механизмларини жорий этишга, шунингдек, маъмурий судларнинг ролини мустаҳкамлашга қаратилган.

**Д.МАХАМАТОВ,**
**Фарғона вилоят маъмурий судининг раиси.**
**О.АБДУСАТТОРОВ,**
**Фарғона вилоят маъмурий судининг судья катта ёрдамчиси.**



**Абдулла ОРИПОВ**

## СЕН БАҲОРНИ СОҒИНМАДИНГМИ?

Уйғонгувчи боғларни кездим,
Топай дедим қирдан изингни.
Ёноғингдан ранг олган дедим –
Лолазорга бурдим юзимни,
Учратмадим аммо ўзингни,
– Сен баҳорни соғинмадингми?

Узоқларда залворли тоғлар
Хаёлимни келдилар босиб.
Кечди қанча интизор чоғлар,
Вaслинг менга бўлмади насиб,
Сенсиз мен ҳам, баҳор ҳам ғариб,
– Сен баҳорни соғинмадингми?

Ўнгирларда сакрайди оҳу,
Наъматакда саъва миттижон.
Қорликлардан сипқарилган сув,
Даралардa уради жавлон.
Нигоҳимдан фақат сен пинҳон,
– Сен баҳорни соғинмадингми?

Мана, бугун Наврўзи олам,
Дўстларимга гуллар тутарман.
Қайлардасан, севгили эркам…
Қўлимда гул, сени кутарман,
Умрим бўйи чорлаб ўтарман,
– Сен баҳорни соғинмадингми?

# “Ferghana city”– вилоят марказининг янги қиёфаси бўлади




**Статистик маълумотларга кўра, ҳозирда мамлакатимиз аҳолисининг 51 фоизини шаҳарларда яшовчилар ташкил қилади. Фуқароларнинг қишлоқлардан шаҳарларга кўчиб ўтиши ўз-ўзидан урбанизация жараёнини тезлаштирмоқда. Бунинг натижасида “ақлли шаҳар” мақомига эга мажмуалар сони кўпайиб боряпти.**

“Шаҳар ичидаги шаҳар” дея таърифланаётган “city”лардаги осмонўпар бинолар, катта ҳудудни қамраб олган ижтимоий инфратузилмалар, смарт технологияларга асосланган иншоотлар, маданий ҳордиқ масканлари кўп сонли инсонларни ўзига жалб этмоқда.

Яқинда Фарғона шаҳрида шундай лойиҳаларнинг бири – “Eko City” қад ростлади. Унинг мантиқий давоми сифатида Фарғона шаҳрининг Университет кўчасидаги собиқ “Болажон” аквапарки ўрнида “Ferghana city” мажмуаси бунёд этилмоқда.

Бош режага асосан, 3 гектар ҳудуднинг асосий қисми уй-жойлар учун ажратилди.

“Fergana city stroy” масъулияти чекланган жамиятига биноларнинг дизайни борасида тўлиқ эркинлик берилди. Мазкур жамият томонидан бунёдкорлик ишлари жадал олиб борилмоқда.

– “City”лар барпо этиш қурувчи ташкилотлар учун янги жараён. Шу боис, лойиҳа устида изланишлар олиб бордик. Москва, Дубай шаҳарлари, Хитой давлати тажрибаси ўрганилди. Ноодатий тарзда – аҳолининг қурилиш ишларини қай тартибда кетаётганини кузатиши ҳамда келажакда бу ерда истиқомат қилишни хоҳловчилар учун "кузатув майдончалари"ни бунёд этдик, – дейди “Fergana city stroy” масъулияти чекланган жамияти ходими Шоҳжаҳон Мўминов. – “Ferghana city”га ўхшаш лойиҳаларнинг барчаси дунё бўйича 5-10 йил муддатда қурилган. Шу боис, мазкур шаҳарчани 2022-2027 йиллар оралиғида тўла бунёд этишни кўзда тутганмиз. HI-Tech услубида қурилаётган турар жой биноларида майдони 63 кв.м. дан 209 кв.м. гача бўлган хонадонлар мавжуд.

Қурилиш лойиҳаси тўрт босқични ўз ичига олади. Биринчи ва иккинчи босқичларда қиймати 120 миллиард сўм бўлган 6 та 9 қаватли уйлар қад ростлади. Лойиҳанинг учинчи босқичи доирасида қарийб 70 миллиард сўм маблағ ҳисобига 7 қаватли бизнес маркази барпо этилмоқда. Сўнгги – тўртинчи босқичда яна 6 та 9 қаватли уйлар қурилиши мўлжалланган. Бундан ташқари, шаҳарчада сайилгоҳ, яшил зона, автотураргоҳ, ландшафт дизайни сингари муҳандислик тармоқларига ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда.

“Ferghana city mall” шаҳарчанинг энг қайноқ нуқтаси ҳисобланади. Мазкур қурилиш объекти бу ерда ишбилармонлар учун барча шароитлар яратилаётганидан далолат беради. Ушбу савдо марказининг ҳар бир қавати 3000 кв.м. дан иборат бўлиб, бизнес марказ, офислар, конгресс-холл, кўргазма заллари, супермаркет, техника ва маиший моллар дўконлари, бренд бутиклар, овқатланиш шохобчалари, фуд корт, замонавий фитнес-клуб, кинотеатр ҳамда юқори қаватида очиқ осмон остидаги ресторан фаолияти йўлга қўйилади.

Вилоят бош архитектори Бегзоджон Раҳимовнинг таъкидича, “Ferghana city mall” улкан лойиҳалардан бири сифатида шаҳарнинг келажакдаги ташқи қиёфасини белгилайди. Мазкур мажмуа шаҳар марказига ўзгача кўрк бағишлаш баробарида, хорижий сайёҳларни ҳам ўзига жалб этади.

Дарвоқе, “Ferghana city”ни бунёд этишда шаҳар қиёфасини янгилаш, ободлик, гўзаллик яратиш, туризмни ривожлантириш, аҳоли турмуш даражасини ошириш каби мақсадлар кўзда тутилмоқда.

**Муаттар МАҲМУДОВА.**


# РЕКЛАМА ВА ЭЪЛОНЛАР

| Ijaraga beruvchi | | | |
|---|---|---|---|
| **Nomi:** | Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Farg’ona viloyat hududiy boshqarmasi | | |
| **Manzili:** | Farg’ona viloyati, Farg’ona shahar, B.Marg’iloniy ko‘chasi, 105-uy | | |
| **Tel.(faks) raqami:** | +998999 539-80-69 | **Elektron pochta manzili:** | farijara@mail.ru |
| **Obyektni berish shartlari** | | | |
| Moddiy madaniy meros obyektlarini va ularga tutash hududlarni ularni obodonlashtirish va zarur holatda saqlash bo‘yicha investisiya majburiyatlari olgan holda ijaraga berish | | | |
| **1-obyekt** | Alkogolli ichimliklar sotilmaydigan umumiy ovqatlanish shoxobchalari (choyxona). | | |
| **2-obyekt** | Alkogolli ichimliklar sotilmaydigan umumiy ovqatlanish shoxobchalari hunarmandchilik markazlari hamda uy mehmonxonalar | | |
| **3-obyekt** | Alkogolli ichimliklar sotilmaydigan umumiy ovqatlanish shoxobchalari (choyxona). | | |

**Ijara obyekti to‘g‘risidagi ma’lumotlar**

| Nomi | Manzili | Balansda saqlovchi tashkilot nomi | Obyektning umumiy maydoni kv.m | Bino-inshoot maydoni kv.m | Hozirgi kundagi holati |
|---|---|---|---|---|---|
| **1-obyekt** XX asr me’moriy yodgorligi binosi (Mandalaki uyi) | Qo’qon shahar «G’ishtli masjid» MFY, Qo’qon sadosi ko’chasi, 24-uy | Farg’ona viloyati Madaniy meros boshqarmasi | 718,64 | 497,66 | Ta’mirtalab |
| **2-obyekt** Bosmaxona binosi | Qo’qon shahar «Vaqf chorus» MFY, Istiqlol xiyoboni ko’chasi, 22-uy | Farg’ona viloyati Madaniy meros boshqarmasi | 2199,67 | 1479,78 | Ta’mirtalab |
| **3-obyekt** “Kamol qozi madrasasi” | Qo’qon shahar «Qaymoqli guzar» MFY, Hamza ko’chasi, 83-uy | Farg’ona viloyati Madaniy meros boshqarmasi | 1092,68 | 606,44 | Ta’mirtalab |

| Restavratsiya-tiklash ishlarini olib borish, uni saqlash, obodonlashtirish va undan foydalanish shartlari | |
|---|---|
| **1-obyekt** | Madaniy meros obyektiga tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari asosida maxsus litsenziyaga ega loyiha va pudrat tashkilotlarini jalb qilgan holda restavratsiya va asrashga doir konservatsiya hamda obodonlashtirish ishlarini olib borish lozim. |
| **2-obyekt** | Madaniy meros obyektiga tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari asosida maxsus litsenziyaga ega loyiha va pudrat tashkilotlarini jalb qilgan holda restavratsiya va asrashga doir konservatsiya hamda obodonlashtirish ishlarini olib borish lozim. |
| **3-obyekt** | Madaniy meros obyektiga tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari asosida maxsus litsenziyaga ega loyiha va pudrat tashkilotlarini jalb qilgan holda restavratsiya va asrashga doir konservatsiya hamda obodonlashtirish ishlarini olib borish lozim. |
| **Moddiy madaniy meros obyektlari davlat kadastriga kiritilgan kadastr axboroti** | |
| **1-obyekt** | 151604010101770000 kadastr raqami bilan davlat ro‘yxatidan o‘tgan |
| **2-obyekt** | 151601050101820000 kadastr raqami bilan davlat ro‘yxatidan o‘tgan |
| **3-obyekt** | 151601200106100000 kadastr raqami bilan davlat ro‘yxatidan o‘tgan |

| Investitsiya majburiyatlarining eng kam miqdorlari | | Obyektni ijaraga olish muddati; | |
|---|---|---|---|
| **1-obyekt** | 3 mlrd.so'm | **1-obyekt** | 30 yil |
| **2-obyekt** | 2 mlrd.500 mln.so'm | **2-obyekt** | 30 yil |
| **3-obyekt** | 1 mlrd.so'm | **3-obyekt** | 30 yil |

***Eslatma:*** *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-martdagi 53-sonli qaroriga asosan ro‘yxatlar ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan kundan boshlab, bir oy (30 kun) mobaynida talabgorlarni tanlovda qatnashish uchun buyurtmalari qabul qilinadi. Belgilangan muddat tugaganidan so‘ng talabgorlarni tanlovda qatnashish uchun buyurtmalari qabul qilinmaydi.*

*Bundan tashqari e'londa belgilangan muddatda buyurtmanomalar kelib tushmaganda, mazkur obyekt bo'yicha buyurtmanomalar kelgusi davr uchun **har o'n kunlik** davriylikda qabul qilinadi.*



МУАССИС: "Farg‘ona haqiqati" va "Ferganskaya pravda" gazetalari tahririyati

Бош муҳаррир: Рустам ОРИПОВ

2021 йил 18 августда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги Фарғона вилояти ҳудудий бошқармасида 12-001 рақами билан рўйхатдан ўтган. Индекс: 7521.

Газета "Zakovat nashriyot uyi" МЧЖ босмахонасида таҳририятнинг оригинал макети асосида офсет усулида А-2 формат (4 саҳифа)да чоп этилди. Босмахона манзили: Наманган вилояти, Косонсой шаҳар, Чорбоғ кўчаси, 17. Буюртма: 11191.

Бизнинг манзил: 150114, Фарғона шаҳар, Соҳибқирон Темур кўчаси, 28-уй.

Бош муҳаррир қабулхонаси: (факс) 73 226-02-70.
Реклама ва эълонлар: 73 226-71-24.

Саҳифаловчи: Алишер Розиқов.

ISSN: 2010-8370

Газета жума куни чиқади. Адади: 2860 нусха. Баҳоси келишилган нархда. Навбатчи муҳаррир: Муаттар Маҳмудова.

Босишга топшириш вақти: 15.00. Топширилди: 15.00.